

AQSH TASHQI SIYOSATIDA YEVROPA OMILI

Rahmatullayev Shohruh Bahromovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida AQSh tashqi siyosatida Yevropa omilining o'rnini va transatlantik munosabatlarning hozirgi holatini tahlil qiladi. Tadqiqotda NATO doirasidagi hamkorlik, Grenlandiya atrofidagi geosiyosiy jarayonlar, AQShning Yevropa Ittifoqi siyosiy tizimiga ta'siri va Yevropa davlatlarining strategik avtonomiya yo'lidagi sa'y-harakatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada transatlantik munosabatlarning an'anaviy ittifoqchilik modelidan yangi bosqichga o'tayotgani, manfaatlar divergensiyasining kuchayib borishi va Yevropa xavfsizligi uchun yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *AQSh tashqi siyosati, Yevropa omili, transatlantik munosabatlar, NATO, Grenlandiya, geosiyosiy raqobat, Yevropa strategik avtonomiyasi, Trump ma'muriyati, Arktika xavfsizligi, Yevropa Ittifoqi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль европейского фактора во внешней политике США и текущее состояние трансатлантических отношений в рамках современных международных отношений. Исследование рассматривает сотрудничество в рамках НАТО, геополитические процессы вокруг Гренландии, влияние политики США на политическую систему Европейского союза и усилия европейских государств по достижению стратегической автономии. В статье обосновывается переход трансатлантических отношений от традиционной модели альянса к новому этапу, характеризующемуся растущим расхождением интересов и возникающими вызовами безопасности для Европы.*

Ключевые слова: *внешняя политика США, европейский фактор, трансатлантические отношения, НАТО, Гренландия, геополитическая конкуренция, европейская стратегическая автономия, администрация Трампа, арктическая безопасность, Европейский союз.*

Abstract. *This article analyzes the role of the European factor in U.S. foreign policy and the current state of transatlantic relations within the framework of contemporary international relations. The study examines NATO-based cooperation, geopolitical processes surrounding Greenland, the influence of U.S. policy on the European Union's political system, and European states' efforts toward strategic autonomy. The article substantiates that transatlantic relations are transitioning from a traditional alliance model to a new stage characterized by growing divergence of interests and emerging security challenges for Europe.*

Keywords: *U.S. foreign policy, European factor, transatlantic relations, NATO, Greenland, geopolitical competition, European strategic autonomy, Trump administration, Arctic security, European Union.*

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida AQSh tashqi siyosatida Yevropa omili doimo ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Yevropa nafaqat tarixiy ittifoqchilik, balki xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va geosiyosiy muvozanatni ta'minlashda muhim strategik hudud hisoblanadi. Ayniqsa, NATO doirasidagi hamkorlik AQShning Yevropadagi ta'sirini mustahkamlash va transatlantik xavfsizlik tizimini saqlab qolishda asosiy instrument bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, XXI asrda global kuchlar nisbatining o'zgarishi, yangi xavfsizlik tahdidlari va iqtisodiy raqobat kuchayishi AQShning Yevropaga nisbatan siyosatini yanada pragmatik va strategik xarakterga ega bo'lishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda ushbu omilning dolzarbligi Grenlandiya atrofidagi geosiyosiy jarayonlar misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Rasmiy jihatdan Daniya tarkibiga kiruvchi ushbu hudud Arktika mintaqasidagi strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va harbiy-logistik ahamiyati tufayli AQSh tashqi siyosatining e'tibor markaziga aylangan. Xususan, Arktikada Rossiya va Xitoy faolligining ortishi AQShni Yevropa ittifoqchilari bilan ushbu hududda yaqinroq hamkorlik qilishga undamoqda. Shu nuqtai nazardan, Grenlandiya masalasi nafaqat hududiy yoki iqtisodiy manfaatlar bilan, balki kengroq geosiyosiy raqobat va xavfsizlik strategiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lib, AQSh tashqi siyosatida Yevropa omilining bugungi kundagi yangi qirralarini ochib bermoqda. Grenlandiya masalasi hamda AQShning Yevropa davlatlari demokratik jarayonlariga aralashuvi fonida transatlantik munosabatlar misli ko'rilmagan darajadagi inqirozga yuz tutish xavfi ostida qolmoqda. Bryusselning qanday choralar ko'rishi lozimligi borasidagi bahs-munozaralar davom etayotgan bir paytda, Yevropa yetakchilarini murakkab va sinovli davrlar kutmoqda. Donald Trumpning 2024-yil noyabr oyida AQSh prezidenti sifatida qayta saylanganidan so'ng, Yevropa yetakchilari uning boshqaruvi dvridagi AQSh endilikda Yevropa Ittifoqiga hamda unga a'zo va a'zo bo'lmagan ko'plab Yevropa davlatlariga ochiqdan-ochiq dushmanona munosabatda ekanini anglab yetishlari uchun to'liq bir yil vaqt talab etildi. O'tgan yil dekabr oyida AQShning yangi Milliy xavfsizlik strategiyasi e'lon qilingach, barcha shubhalarga barham berildi: "Trump 2.0" ma'muriyati Yevropa Ittifoqiga qarshi mafkuraviy kurashni boshlab yubordi va ko'plab Yevropa mamlakatlarining ichki siyosiy jarayonlariga bevosita aralashishni maqsad qilgan. 2026-yilda Vashingtonning asosiy nishonlari sifatida Grenlandiya va Yevropa Ittifoqining siyosiy tizimi ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, Yevropa yetakchilari AQShning har qanday harakatlariga qanday javob qaytarishidan qat'i nazar, yil davomida Atlantika ortidan murosaviy yondashuv shakllanishi ehtimoli nihoyatda past bo'lib qolmoqda. Dastlab, ishonchsizlik hukm surdi. Hatto AQSh vitse-prezidenti J. D. Vancening 2025-yil fevral oyida Myunxendagi keskin nutqidan keyin ham, Yevropa yetakchilarining aksariyati so'nggi sakson yil davomida shakllangan transatlantik munosabatlarning asoslari yemirilayotganini tan olishni istashmadi. Biroq, Donald Trumpning

ikkinchi prezidentlik davri bir yil o'tganidan so'ng turli bayonotlar, uchrashuvlar, kelishuvlar va kelishmovchiliklar, shuningdek 2025-yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasining e'lon qilinishi fonida kamida muayyan darajada aniqlik yuzaga keldi. Bryussel nuqtayi nazaridan qaralganda, Amerikaning Yevropadagi hamkorlari AQSh tashqi siyosatining mutlaqo yangi yondashuvi bilan yuzma-yuz kelmoqda, va u to'rtta asosiy elementni o'z ichiga oladi. Birinchidan, mutlaq kuch ustuvorligi kuzatilmoqda. "Trump ma'muriyati" yirik (masalan, Eron va Venesuelada) hamda nisbatan kichik (Nigeriya, Suriya va ochiq dengizlarda) harbiy operatsiyalarni amalga oshirdi. Shuningdek, u Germaniya, Polsha va Ruminiyada saylov jarayonlariga aralashdi va bunday holatlar yana davom etishi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, AQSh "Grenlandiya bizga zarur" degan imperial diskurslarni ilgari surdi hamda Kanadaning AQShning ellik birinchi shtatiga aylanishi g'oyasini o'rtaga tashladi. Shu bilan birga, global miqyosda tariflar joriy etish orqali savdo urushlarini boshladi. Ikkinchidan, Oq uy milliardlab dollarlik "diplomatiya" olib bormoqda. Rossiya va G'azo sektoridagi hududlaridan tortib Venesuela hamda Grenlandiyagacha bo'lgan mintaqalarda AQSh tashabbuslari ko'pincha ko'chmas mulk yoki yer osti resurslariga kirish kabi yirik iqtisodiy va moliyaviy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lmoqda. Uchinchidan, Vashington Yevropa Ittifoqini siyosiy birlik sifatida shakllantirgan asoslarni yemirishga qaratilgan mafkuraviy faoliyatni boshlab yubordi. Ushbu yondashuv Yevropani yana alohida milliy davlatlar yig'indisiga aylantirish va, ayniqsa, raqamli sohada Ittifoqning normativ (qonun chiqaruvchi) rolini zaiflashtirishga qaratilgan. To'rtinchidan, AQSh ko'plab xalqaro majburiyatlardan voz kechdi. Jumladan, iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi, UNESCO, BMTning qochqinlar agentligi, JSST hamda yana oltmish oltita tashkilot, konvensiya va bitimlardan chiqdi. Shunga qaramay, ko'plab harakatlar va shov-shuvlarga qaramasdan, Yevropa uchun muhim bo'lgan asosiy yo'nalishlarda deyarli hech qanday natijaga erishilmadi. Masalan, AQSh boshidanoq Moskva bilan muayyan darajada uyg'unlashgan pozitsiyada bo'lgan Ukrainada hali ham o't ochishni to'xtatish bo'yicha kelishuvga erishilmadi, G'azo sektori va G'arbiy Sohildagi falastinliklarning taqdiri esa fojeaviyligicha qolmoqda.

Natijada, Ikkinchi jahon urushidan keyin asosan AQSh yetakchiligi ostida shakllangan "qoidalarga asoslangan tartib" amalda zaiflashdi va BMTning roli keskin kamaydi. Aksincha, Rossiya AQShning Moskva neoimperialistik maqsadlariga yaqinlashuvi fonida ma'lum darajada dalda topmoqda hamda hududiy nazorat va resurslarga asoslangan tashqi siyosat yuritayotgan AQSh prezidentining yondashuvini o'ziga xos tarzda takrorlamoqda. Bundan tashqari, Oq uy va Kreml o'rtasidagi muayyan darajadagi o'zaro yaqinlashuv Yevropa davlatlari, xususan, Yevropa Ittifoqiga bosimni kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, joriy yilning 3-yanvar kuni AQSh tomonidan Venesuelaning o'sha paytdagi prezidenti Nicolás Maduro ni mamlakatdan olib chiqish bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyadan so'ng transatlantik munosabatlar yuzasidan bahslar yanada keskinlashdi. Yumshoq qilib aytganda, Yevropa yetakchilarining aksariyati transatlantik munosabatlarning keskin tanazzulga uchraganidan hayratda. Nufuzli tahlilchilar ham shunday holatda Hatto AQSh prezidentining Floridadagi Mar-a-Lago qarorgohiga tashrif buyurishga moyil bo'lgan va

Trampga yon bosishga intiladigan yetakchilar ham oxir-oqibatda hayrat va tushunmovchilik holatida qolmoqda. Umuman olganda, Ukrainadagi tinchlik masalasi bo'yicha transatlantik bahslarni chetga surib qo'ysak, 2026-yilda Amerika-Yevropa munosabatlari uchun ikki asosiy sinov mavjud: biri - Grenlandiya, ikkinchisi esa - Yevropa Ittifoqining siyosiy tizimini saqlab qolishdir.

Birinchidan, Grenlandiya masalasi. Trampning Daniya hududi bo'yicha so'nggi bayonotlari Yevropa Ittifoqi ichida ham, undan tashqarida ham yetakchilar tomonidan aniq pozitsiyaning shakllanishiga olib keldi. 6-yanvar kuni Daniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Polsha, Ispaniya va Buyuk Britaniya yetakchilari tomonidan bir bayonot e'lon qilindi, yana bir bayonot esa besh Shimoliy davlat tashqi ishlar vazirlari tomonidan ilgari surildi. Har ikkala bayonot mazmunan bir xil pozitsiyaning ifodaladi: Arktika mintaqasi xavfsizligi jamoaviy tarzda muhokama qilinishi lozim bo'lsa-da, Grenlandiyaning kelajagi faqat uning aholisi tomonidan belgilanishi kerak. Diplomatik bayonotlar, hatto eng yuqori darajada qabul qilingan taqdirda ham, murakkab masalalar bo'yicha siyosiy pozitsiyaning eng minimal ifodasidir. "Trampcha" siyosiy muhitda bunday bayonotlar Oq uyning keskin narrativini to'xtatishi ehtimoldan yiroq, biroq ular Yevropa tomonining Grenlandiyaga nisbatan chuqur ildiz otgan qarashlarini rasmiylashtirish imkonini beradi. Boshqa choralarni ishlab chiqish esa ancha murakkab. Nazariy jihatdan eng maqbul variant - NATO doirasida Arktika xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan umumiy rejani ishlab chiqishdir. Bu yondashuv AQShning rolini va uning Pituffik harbiy bazasini saqlab qolgan holda, Yevropa davlatlarining ishtirokini ta'minlash hamda Grenlandiyaning hududiy yaxlitligini asrashni ko'zda tutadi. Bu maqsad so'nggi Yevropa bayonotlarida ham aniq ifodalangan.

Agar kelgusida Vashingtonning mazkur hudud bo'yicha pozitsiyasi o'zgarmasa va Yevropa davlatlari hamda NATO bilan qo'shma harbiy faoliyat bo'yicha umumiy kelishuvga erishilmasa, qisqa muddatda NATO faoliyatining to'liq falajlanishi va misli ko'rilmagan transatlantik inqiroz yuzaga kelishi ehtimoli yuqori.

O'zi nega Grenlandiya hududi AQSh ga kerak, shu savolga batafsil oydinlik kiritadigan bo'lsak, AQSh uchun Grenlandiya hududining ahamiyati bir nechta strategik, iqtisodiy va harbiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu masala oddiy hududiy qiziqishdan ko'ra ancha chuqur geosiyosiy mazmunga ega. 1. Strategik-geografik joylashuv - Grenlandiya Arktika mintaqasida joylashgan bo'lib, Shimoliy Amerika va Yevropa o'rtasidagi eng muhim geostrategik nuqtalardan biri hisoblanadi. Ushbu hudud orqali AQSh Yevropa bilan harbiy-logistik aloqalarni nazorat qila oladi, Arktika hududidagi harakatlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, Rossiyaning Arktikadagi harbiy faolligi oshib borayotgan bir paytda, bu hudud AQSh uchun "erta ogohlantirish zonasi" vazifasini bajaradi. 2. Harbiy va xavfsizlik ahamiyati - Grenlandiyada AQShning muhim harbiy obyekti - Thule aviabazasi joylashgan. Bu baza - ballistik raketalarni aniqlash (raketa hujumidan ogohlantirish tizimi), kosmik kuzatuv va radar tizimlari, NATO doirasida strategik mudofaa uchun juda muhim hisoblanadi. Shu jihatdan NATO xavfsizlik tizimida ham Grenlandiyaning o'рни katta. 3. Tabiiy resurslar - Grenlandiya katta miqdorda hali to'liq o'rganilmagan tabiiy boyliklarga ega: neft va gaz, nodir

yer elementlari (rare earth metals), oltin va boshqa foydali qazilmalar. Bu resurslar, ayniqsa, yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishda muhim bo'lib, Xitoyning ushbu sohadagi ustunligini kamaytirish uchun AQSh uchun strategik ahamiyatga ega. 4. Arktika uchun kurash - Global isish natijasida Arktika hududida yangi dengiz yo'llari ochilmoqda. Bu esa savdo yo'llarini qisqartiradi, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. AQSh bu jarayonda faol ishtirok etishni xohlaydi. Grenlandiya esa bu hududdagi eng muhim tayanch nuqtalardan biridir. 5. Geosiyosiy raqobat - Grenlandiya AQSh uchun faqat resurs yoki harbiy baza emas - bu katta geosiyosiy o'yin elementi degani. Xitoy Grenlandiyada investitsiya qilishga qiziqish bildirgan, Rossiya Arktikada o'z ta'sirini kengaytirmoqda. Shu sababli AQSh bu hududni raqobatchilar ta'siriga tushib qolishidan himoya qilishni istaydi. Donald Trump 2019-yilda Grenlandiyani sotib olish g'oyasini ilgari surgan edi. Bu g'oya hududni to'liq strategik nazoratga olish, uzoq muddatli harbiy va iqtisodiy ustunlikni ta'minlash bilan izohlanadi. Biroq Daniya bu taklifni rad etgan. Grenlandiya AQSh uchun oddiy hudud emas, balki strategik "kalit nuqta" hisoblanadi. U harbiy xavfsizlik, global raqobat, energetika resurslari va Arktika ustidan nazorat kabi omillarni birlashtiradi. Shu sababli AQSh bu hududni bevosita egallamasa ham, u yerda o'z ta'sirini maksimal darajada saqlab qolishga intiladi.

Ikkinchi sinov - Yevropa Ittifoqining siyosiy arxitekturasining yaxlitligidir. AQShning yangi xavfsizlik strategiyasida e'lon qilingan siyosiy maqsadlarni hisobga olganda, bu masala 2026-yilda transatlantik munosabatlar uchun yana bir murakkab va xavfli yo'nalishga aylanishi kutilmoqda. Ko'rinib turibdiki, Tramp ma'muriyati Vengriya, Chexiya va Slovakiya kabi davlatlar, shuningdek Yevropa bo'ylab "patriotik" deb ataluvchi siyosiy partiyalar bilan yaqin hamkorlik qilishni maqsad qilgan. Jumladan, Fransiya'dagi "Milliy yig'ilish" (RN), Germaniya'dagi "Alternativa", Italiya'dagi "Italiya birodarlari" va "Shimoliy liga", Niderlandiya'dagi "Erkinlik partiyasi" shular jumlasidandir. Strategiya matnida ta'kidlanganidek, "Yevropadagi patriotik partiyalarning kuchayib borayotgan ta'siri katta optimizm uchun asos bo'lmoqda". E'tiborlisi, AQShning ushbu siyosiy kuchlarni qo'llab-quvvatlashi Rossiyaning ularga ko'rsatayotgan siyosiy va moliyaviy yordamiga o'xshab ketadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida United States va Yevropa o'rtasidagi transatlantik munosabatlar an'anaviy ittifoqchilik modelidan asta-sekin transformatsiya jarayoniga o'tmoqda. Tadqiqotda ko'rib chiqilganidek, AQSh tashqi siyosatida Yevropa omili uzoq yillar davomida xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va geosiyosiy muvozanatni ta'minlovchi asosiy ustunlardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, NATO doirasidagi hamkorlik Atlantika xavfsizlik tizimining markaziy elementi sifatida AQShning global ta'sirini mustahkamlab kelgan.

Biroq XXI asrning ikkinchi choragiga kelib, global kuchlar muvozanatining o'zgarishi, yangi geosiyosiy raqobatning kuchayishi hamda ichki siyosiy transformatsiyalar natijasida AQSh–Yevropa munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, Arktika mintaqasidagi strategik raqobat, ayniqsa Grenlandiya atrofidagi geosiyosiy jarayonlar, transatlantik munosabatlarning yangi bosqichga kirganini ko'rsatadi. Ushbu hudud nafaqat harbiy-strategik nuqta, balki tabiiy resurslar va global logistika nuqtai nazaridan ham AQSh va

Yevropa manfaatlari to'qnash keladigan muhim makonga aylangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSh tashqi siyosatining so'nggi yillardagi yo'nalishi Yevropa siyosiy tizimiga nisbatan yanada faol va ba'zan bosimga asoslangan yondashuvni o'z ichiga olmoqda. Bu holat Yevropa Ittifoqi institutlariga nisbatan mafkuraviy tanqidlar, ayrim siyosiy jarayonlarga bilvosita aralashuv ehtimoli hamda global savdo va xavfsizlik tizimidagi pozitsiyalarni qayta ko'rib chiqish bilan ifodalanadi. Natijada, Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan "qoidalarga asoslangan xalqaro tartib"ning zaiflashuvi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, Yevropa davlatlarida AQShga nisbatan ishonchning pasayishi va strategik avtonomiya g'oyasining kuchayishi ham muhim tendensiya sifatida ajralib turadi. Yevropa davlatlari o'z mudofaa salohiyatini mustahkamlash, harbiy integratsiyani chuqurlashtirish va AQShga qaramlikni kamaytirish yo'nalishida harakat qilmoqda. Bu jarayon esa transatlantik ittifoqning kelajakdagi shakli va barqarorligiga nisbatan yangi savollarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSh va Yevropa o'rtasidagi munosabatlar bir tomondan strategik hamkorlikni saqlab qolishga intilsa, ikkinchi tomondan manfaatlar divergensiyasi kuchayib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. NATO. The North Atlantic Treaty Organization: Strategic Concept and Allied Deterrence in Europe. Brussels: NATO Public Diplomacy Division, 2022.
2. Sørensen, C. Arctic Geopolitics and Great Power Competition in Greenland // International Affairs. 2024. - Vol. 100, No. 3. - pp. 745–762.
3. Smith, J. Transatlantic Relations and U.S. Foreign Policy under Strategic Rivalry // Foreign Affairs. 2025. Vol. 104, No. 2. pp. 55–78.
4. National Security Council. U.S. National Security Strategy 2025: Strategic Priorities and Global Competition. Washington, D.C.: The White House, 2025.
5. Daalder, I. H., & Lindsay, J. M. America Unbound: The Trump Doctrine and Transatlantic Relations // Foreign Affairs. 2025. Vol. 104, No. 1. pp. 33–58.
6. Pierini, M. Europe's American Predicament // Carnegie Endowment for International Peace. 19 January 2026.
7. Mead, W. R. The Return of Geopolitics: Transatlantic Tensions and U.S. Strategic Behavior // Foreign Affairs. 2024. Vol. 103, No. 4. pp. 12–39.
8. Brands, H., & Feaver, P. The Trump Doctrine and Economic Statecraft in a Fragmenting World Order // Foreign Affairs. 2025. Vol. 104, No. 3. pp. 41–67.
9. Ikenberry, G. J. The End of Liberal International Order? // International Affairs. 2024. Vol. 100, No. 5. pp. 889–910.
10. Smeets, M. Great Power Competition in the Arctic: U.S., Russia, and China in Greenland and the North Atlantic // Journal of Strategic Studies. 2024. Vol. 47, No. 6. pp. 1021–1045.

11. NATO. Allied Responses to Arctic Security Challenges: Policy Brief. - Brussels: NATO Publications, 2025.
12. Kupchan, C. A. The Transatlantic Rift and the Future of NATO // Foreign Affairs. 2025. Vol. 104, No. 2. pp. 60–84.
13. Arctic Council. Arctic Governance and Security Cooperation Framework Report. - Tromsø: Arctic Council Secretariat, 2024.
14. Smith, L., & Weber, S. EU Strategic Autonomy and the Legal Status of Overseas Territories (OCTs) // Common Market Law Review. - 2024. - Vol. 61, No. 4. - pp. 1123–1148.
15. Dodds, K. Geopolitics of Greenland and the North Atlantic: Strategic Competition in the Arctic // Polar Geography. - 2024. - Vol. 47, No. 2. - pp. 201–223.
16. Conley, H. A. The Arctic Shift: U.S. Strategy and Greenland's Geopolitical Importance // CSIS Report. - Washington, D.C., 2024.
17. Keating, V. C. Populism and Transatlantic Fragmentation: U.S.–Europe Relations under Strategic Strain // Journal of European Integration. 2025. Vol. 47, No. 3. pp. 301–320.